MAQOLLAR – UMUMMADANIY KOMPETENSIYANING ASOSIY MANBAALARIDAN BIRI

Eliboyeva Surayyo Abdukarim qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
telefon: +998945767929
E-mail: eliboyevasurayyo77@gmail.com

Anotatsiya: *Bu risola kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarning umummadaniy kompetensiya va milliy qadriyatlarga doir bilimlarini oshirish va unda foydali metodik o‘yinni o‘z tarkibiga oladi, shuningdek, umummadaniy va milliy kompetensiya tushunchalariga ham izohlar berib o‘tgan.*

Kalit so‘z: *milliy va umummadaniy kompetensiya, maqollar, xalq og‘zaki ijodi, kichik yoshdagi o‘quvchilar, kompetensiyaviylikni oshirish.*

Annotation: *This thesis aims to enhance the knowledge of primary school students about universal cultural competence and national values. It also includes a methodological game that contributes to this process, as well as explanations of the concepts of universal and national competence.*

Keywords: *national and universal competence, proverbs, folklore, primary school students, competence development.*

Аннотация: *Данная тезисная работа направлена на повышение знаний учащихся младших классов об общекультурной компетенции и национальных ценностях. В ней также представлена методическая игра, способствующая данному процессу, а также даны разъяснения понятий общекультурной и национальной компетенции.*

Ключевые слова: *национальная и общекультурная компетенция, пословицы, народное устное творчество, младшие школьники, развитие компетентности.*

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida shakllantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarning mavjud bo‘lib, ular o‘qib o‘rgangan predmetini tushinib, qayta aytib bera olishi yoki uning mazmuni so‘zlab bera olishi, shuningdek, o‘zgalar tomonidan bayon etilgan nutqni tinglab, anglay olish malakalari hisoblanadi. Bu malakalar o‘quvchi yoshlarda o‘z-o‘zidan hosil bo‘lib qolmaydi. O‘qituvchi buning uchun o‘quvchilarni ko‘proq o‘qishga va xalq og‘zaki ijodiyoti bilan tanishtirishga harakat qilishi lozim.

“Nima uchun xalq og‘zaki ijodiyoti ham muhim hisoblanadi?”- degan savol tug‘iladi. Uning javobi esa oddiy. Xalq og‘zaki ijodi murakkab va mukammal nutqdir.Ular sodda va qisqa ko‘rinishda(maqol, topishmoq kabi) yoki juda uzun va tushunilishi qiyin bo‘lishi mumkin(doston kabi), lekin ular yosh avlod tarbiyasining tayanch ustunlaridan hisoblanadi. Xususan, maqollar shunday tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Maqollar shakl jihatidan kichik bo‘lishi mumkin, ammo umumbashariy va milliy ongning asosiy manbaasidir. O‘quvchilar

maqollarni o‘qish va uning mazmunini izohlash orqali dunyoqarashi shakllanadi va nutqi ham rivojlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda ham bolalarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish belgilangan bo‘lib, ulardan biri milliy va umummadaniy kompetensiyadir.

Ona yurtga sodiq, yon-atrofdagilarga mehr-oqibatli va umumbashariy va milliy urf-odat va qadriyatlarga amalq qilish, badiiy asar va sa’natni anglay olish, toza va ozoda kiyinish, madaniy qonun-qoidalar va sog‘lom turmush tarzini hayotida qo‘llay olishga milliy va umummadaniy kompetantlik deyiladi.[1] Kompetensiyaviylikni oshirishga qaratilgan dasturlarda umumiy o‘rta ta’limni isloh qilish, uning yo‘nalishlarida o‘quvchilarga adabiy ta’lim berish hamda estetik tarbiyasini oshirishda doir amaliyotlarni yanada rivojlantirish haqida so‘z yuritilgan. Sababi esa oddiy, yoshlarda adabiy tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish,estetika va etikasini rivojlantirish, san’at va atrof- muhit go‘zalliklari va so‘z orqali tushunish, oila va vatan kabi tushunchalarni, insoniy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatish davr talabi hisoblanadi. Bu jarayonda asosiy qurollarimizdan biri sifatida maqollar va xalq og‘zaki ijodiyotining boshqa na’munalarini olsak bo ‘ladi, chunki yuqorida sanab o‘tilgan barcha sohalar birgina maqollarda orqali qisqa va lo‘nda tarzda bayon qilib, o‘quvchilar ongiga yetkazish mumkin.

Maqollar – umummadaniy kompetensiyaning asosiy manbalaridan biri. Maqollarning asosiy vazifasi tarbiyalash, tushuntirishdir. Vatanni sevish, unga sodiqlik, insonlarni hurmat qilish, e’zozlash, atrof-muhitga yaxshi munosabatda bo‘lish kabi qadriyatlar faqatgina bir xalqqa tegishli emas, balki dunyo miqyosida amal qilinadigan qadriyatlar sirasiga kiradi. Dars davomida maqollarni turli shakllarda o‘quvchilarga yetkazish, ularga maqollar ma’nolarni chaqishga pedagog tomonidan ko‘mak sababli, ulardagi milliy va umummadaniy qadriyatlarni tushunish va real hayot tarzida qo‘llash kompetentligi rivojlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarni ko‘proq turli qiziqarli metodlar va o‘yinlar o‘ziga jalb qiladi. Maqollar hajm jihatidan qisqa ko‘rinishga egaligi sababli turli o‘yinlarda foydalansak bo‘ladi.

Masalan, umummmadaniy qadriyatlarni va milliy kompetensiyani kichik yoshdagi o‘quvchilarda shakllantirish uchun maqollardan foydalanib qisqagina metodologik o‘yin tuzamiz. Uning nomi “Maqollar zanjiri” deb ataladi. Bunda o‘quvchilar bir chekkadan zanjir tarzida tahlanishadi va ular umummadaniy qadriyatlarga mos maqollarni aytishlari lozim bo‘ladi. Quyidagi kabi…

1-o ‘quvchi: *“Baliq suv bilan tirik,*

Odam-el bilan”

2-o ‘quvchi: *“Tinch elning bog‘i gullar”*

Umummadaniy, ya’ni: inson hayoti va sha’ni, adolat, erkinlik,tinchlik, mehr oqibat, insonparvarlik, tolerantlik, oila muqaddasligi, mehnatsevarlik, atro- muhitni saqlash, ta’lim va ma’rifat, vatanparvarlik, halollik, madaniyat va san’atga hurmat, hamjihatlik va birdamlik singari qadriyatlarni ulug‘lovchi maqollarni misol tariqasida aytish talabi qo‘yiladi. Bu

[1] Nazarova M. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda o‘qish darslarining roli // *Мировая наука*. – № 1 (46). – 2020. – Б. 22–25.

metodolik o‘yin orqali ular umumbashariy qadriyat nimaligini anglab olishadi va bilgan maqollari sonini yanada oshirib olishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xalq og‘zaki ijodi o‘quvchilarning turli kompetensiyalarini oshirish uchun eng ma’qul va samarali yo‘li desak xato bo‘lmaydi. U faqatgina an’anaviy ta’lim balki, zamonaviy ta’limning ham markazidan o‘rin egallaydi

ADABIYOTLAR:

1. Nazarova, M. S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umummadaniy kompetensiyani shakllantirishda o‘qish darslarining roli. Мировая наука. (2020) № 1 (46), 22–25.

2. Eliboyeva S. A. Is Universal and Global Competence One Concept? An International Look at Them (in the Manner of Source Analysis). London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation 2025. London. 2025.

3. Boltayeva B.I., Eliboyeva S. A. Boshlang‘ich sinf darsliklarida maqollar va hikmatlarning qo‘llanilishi va kompentensiyaviy ahamiyati(4-sinf o‘qish va savodxonligi misolida). “Maxsus ta’lım muammoları: innovatsıya va istıqbolları” Respublika ilmiy-texnik anjumani materiallari. Jizzax, 2025.1082-1084-b.